



JADIDLAR DAVRIDA MILLIY MATBUOTCHILIKNING IJTIMOIY-MADANIY HAYOTDAGI O'RNI

Umidjon Sotivoldiyev Xakimjon o'g'li

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Turkiston o'lkasida bu hududlar tarixini o'rganish, unga xolisona baho berish uchun turli aniq faktlarga asoslangan adabiyotlarga ehtiyoj har doimgidan ham oshib ketdi. Chunki mustamlaka tizimida yashayotgan xalq o'zligini bilish uchun ko'p hollarda mustamlaka hukumat tomonidan buzib talqin etilgan manbalardan istifoda qilar edi. Shu jihatdan ularni o'rganish uchun alohida bosmaxonalar tashkil etish zaruriyatga aylandi. Shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy, diniy muhit haqida batafsil ma'lumotlarni o'lka musulmonlariga yetkazish ham dolzarb muammoga aylandi. Bosmaxonalar vujudga kelgunga qadar bu hududlarda xattotlik san'ati yuksak darajada rivojlanganligi hech kimga sir emas. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi xattotlik maktablari o'zining tarixiy taraqqiyoti o'laroq ko'plab mohir xattotlarni yetishtirib chiqargan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoroda 75, Samarqandda 22, Xivada 47, Toshkentda 25, Farg'onada 38 nafar mashhur xattotlar bo'lib, ular xalqimiz yaratgan asl ilmiy durdonalarning bizgacha yetib kelishiga hissa qo'shganlar⁵⁵. XIX asrning oxirida Markaziy Osiyoga tipografiya kirib kelib, matbuotga asos solinishi bilan, uning sahifalarida nafaqat Podsho Rossiyasi ichki hayotiga oid ma'lumotlar, balki Turkiston o'lkasi madaniyati, turmush-tarzi, urf-odatlar, mahalliy xalqning diniy holati va islom ta'limotiga oid turli xildagi maqolalar ham ilk bor xalq e'tiboriga taqdim etila boshlandi. Turkiston o'lkasidagi dastlabki bosma nashrlar o'lka tabiati, iqtisodi, ishlab chiqarish kuchlari, mahalliy aholi turmush darajasini o'rganishga oid manbalar hisoblanib bundan Chor hukumati alohida maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalangan. ⁵⁵ Murodov A. O'rta



Osiyo xattotlik san'ti tarixidan.- Toshkent, 1972.– 85-91 b 52 Xiva Xoni Muhammad Rahimxon II Xiva shahrida dastlabki bosmaxona tashkil etgan shaxs sifatida qaraladi. Bu bosmaxonada dastlab chop etilgan asarlar esa Navoiyning “Chor Devon”, “Xamsa” asarlari hisoblanadi. Shuningdek Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi shoir-u adiblarning asarlari bosib chiqarildi. Xorazm shoirlarining asralaridan tarkib topgan tazkira, bayoz va turli xalqlar tillaridan qilingan tarjimalar ham shu matbaada bosib chiqarildi⁵⁶. Turkistonda tashkil etilgan birinchi gazeta “Turkiston viloyatining gazetisi” hisoblangan. Bu gazeta avvalo “Туркестанские ведомости” ga ilova tarzida chiqarilgan. 1871-yildan e'tiboran yiliga to'rt marotaba: ikki marta o'zbek tilida, ikki marta qirg'iz tillarida chiqarila boshlangan. Uning sahifalarida dastavval tarix, etnografiya, arxeologiya, numizmatika sohlariga oid bir qancha maqolalar chop etilgan⁵⁷. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan dastlab ma'rifatparvarlik ko'rinishida keyinchalik bu harakatga siyosiy tus berilishiga o'xshab o'lkada vujudga kelgan matbout turli yo'nalishda namoyon bo'ladi. Dastlabki davrda ya'ni 1906 yillargacha vujudga kelgan matbuot Chor imperiya hukumati mustamlakachiligini mustahkamlash hamda uning siyosatini tatbiq etishga qaratilgan bo'lsa, undan keying davrda vujudga kelgan matbuotda milliy o'zlikni anglashga, o'lka musulmonlari diniy-ma'rifiy ongini rivojlantirishga, XIX asr oxirida vujudga kelgan yangi usul maktablari tashviqoti, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat bilan bog'liq masalalar bayon etilganini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, irodali o'lka aholisi turli hududlarda mustamlakachilarga im-ma'rifat, madaniyat bilan qarshi turishga urindilar. Buni yaxshi tushunib yetgan o'lka ma'murlari millatni bo'ysindirmoqchi bo'lsang, uning tili, madaniyatidan judo qilish kerak degan g'oyaga asoslanib, ruslashtirish siyosatini amalga oshirishga harakat qildilar. Turkistonda tashkil etilgan “Туркестанские ведомости”, “Turkiston viloyatining gazetisi” kabi gazetalar avvalo ayni yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qilishi kerak ⁵⁶Xayrullayev M.M. Ma'naviyat yulduzlari.— T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 1999. — 334 b. ⁵⁷ T. Ernazarov va A. Akbarov.



История печати Туркестана –19 с. 53 54 edi. Birgina Abdulla Avloniyning “Туркестанские ведомости” gazetasi faoliyati haqida quyidagilarni aytib o‘tgan: “ Bu gazeta maorif-madaniyatga dushman bo‘lg‘oni hamda tabiiy el orasig‘a bid‘at, xurofot tarqatishqa bor kuchi bilan kirishgan va bu yo‘lda bir qancha muvaffaqiyatlarg‘a uchrag‘an edi. Bu gazetada muharrirlik etganlarni kamida eng fidokori missioner Ostroumov edi”58. Ma‘rifatparvar namoyondalar nafaqat o‘lkada bo‘layotgan holatlarni balki butun Chor Rossiyasida sodir bo‘layotgan jarayonlarni diqqatlik bilan kuzatib, tahlil qilib borardilar. XX asr boshlaridagi Rossiyada bo‘lgan siyosiy jarayonlar mustamlakalarga ham ta‘sirini o‘tkazmay qolmas edi. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, imperiya hukumati o‘lkada o‘z mavqeini mustahkamlash va siyosatini amalga oshirish uchun ham mustamlaka hududlarda matbuotni zarur deb topdi. Chunki aholini ma‘naviy bo‘shliqlarini ular o‘zlari xohlaganlaridek, o‘zlariga bo‘ysinadigan manqurt holga keltirishga qattiq bel bog‘lagan edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulla Avloniy. Burung‘I o‘zbek vaqtli matbuot tarixi.//Turkiston gazetasi. 1924-yil 24-iyun, № 295 59
2. O‘z. Res. MDA, 2-fond, 2-ro‘yxat, 369-yig‘majild,13-v
3. “Taraqqiy” gazetasi.1906-yil, № 1, –1 b
4. Shamsuddinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi.- Andijon, 2011.– 306-307 b.
5. Said Ziyoyev Tanlangan asarlar.- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974.– 46 b.